

BADIIY ADABIYOTDA OTA TIMSOLI

Aminova Dilshoda Shavkatovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy adabiyotda ota timsolining o'rne va ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *O'zbek, adabiyot, ota, oila, hayot, his-tuyg'u, badiiy obraz, hayot, san'at, maqsad.*

Mana necha asrlardan buyon o'zbeklarning milliy mentaliteti va adabiyoti hamjihatlikda, bir-birini to'ldirgan holda rivojlanib kelmoqda. Adabiyotimizning har bir jabhasida milliy mentalitetimizning uchqunlarini ko'rishimiz mumkin. O'zbek adabiyoti mana shu mentalitet zamirida esa juda ko'p oily qadriyatlar ichida milliyligimizning bir ifodasi bo'lmish ota-onani hurmat qilish, ularning rozi- rizoligi bilan ish ko'rish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu badiiy adabiyotda ham o'z aksini topgan. Chunki adabiyot hayotni ko'rsatib berish orqali odamlarga ibrat bo'la oladi.

Adabiyot fanlarning ichida inson ichki kechimalari, his-tuyg'ulari bilan o'rtoqlashadigan yagona fan desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning bosh maqsadi ijtimoiy hayotimizni, badiiy obrazlar yordamida ifodalab, real hayotimizda yoritib berishdan iborat. Adabiyot va san'at kishilarining olamini idrok etishi, hodisalarni anglashiga yaqindan ko'maklashadi. Bu jihatdan hech bir fan, san'at va adabiyot bilan raqobat qilolmaydi. Barcha fanlar birlashganda ham odamlarga hayot murakkabliklari, inson dunyosi jumboqlari to'g'risida adabiyotchilik tasavvur berolmaydi.

Sharq uyg'onish davri vakillari, allomalarimiz dunyoga mashhur olim, ulamo sifatida tarix zarvaraqlarini bezab turadi. Ular yashagan davr haqida o'rganishlar natijasida, hamisha dunyoviy bilim zamirida diniy tarbiyaning yotganligining guvohi bo'lganmiz. Buni birgina asarlar ichidagi "ota" timsoli orqali ham yoritish mumkin. Shunday hikoyatlar borki, ota yotgan uyning tomiga chiqish mumkin emasligi, otaga tik boqish oqpadar bo'lishlikga olib kelishi, ota qarq'ishini olish ikki dunyoda ham ko'karmaslik kabi mazmunga ega. Ota nasihati o'laroq farzand kamolotga yetishi, ulug' martabalarni egallashi, ikki dunyo saodatiga erishishi mazmunini ifodalovchi, pandnoma ruhidagi kichik rivoyatlar ham ko'plab uchraydi. Zero, "Ota rozi - Xudo rozi". Ammo aynan "OTA" timsoli keng mushohadada yoritilgan, ya'ni bosh siymo darajasida olib chiqilgan asarlar nihoyatda kam, "ONA" to'g'risidagi hikoyalimiz va qissalarimiz esa xotiramizga yod bo'lib ketgan. Doimo onalarimizni kuylaymiz, ulug'laymiz. Albatta bu arzirli holat. Ammo ba'zi o'rinlarda ularni yonida tog' bo'lib turgan padaribuzrukvorimiz ham bu alqovga loyiq, nazarimda. Bugungi maqolamiz aynan shu xususida. Ilagani, barcha mol-mulkini taqsimlashda ham adolat bilan yondoshganligi tarixga muhrlangan. Bunda farzandlariga saltanatni taqsimlash jarayoni, to'la-to'kis misol bo'la oladi. Otalik maqomiga erishgan har bir inson, xoh shoh yoki oddiy bir inson, u farzandlari uchun o'z mavqeiga ega. Amur Temur farzandlari orasidan saltanat uchun bosh ko'targan o'g'illariga jazoni shunday tartibda belgilaganki, bunda otalarcha mehrni bilmaslikning, sezmaslikning imkoni yo'q. "Amir qildimki, agar o'g'illarimdan qaysi

birovi saltanat martabasiga da'vogarlik qilib bosh ko'tarar ekan, uni o'ldirishga qo'llarini bog'lashga yoki muchasidan biror joyini kamaytirishga hech kim jur'at qilmasin. Lekin o'z da'vosidan kechmaguncha, uni asrlikka saqlasinlar, toki Xudoning mulkida urush chiqmasin."2 Bu o'rinda Amur Temurning siyosatiga yoki, uning adolatga putur yetkazayotgan shoh sifatida fikr bildirishdan yiroqmiz. Umuman olganda fikrimiz otalik maqomiga qaratilgan ekan, otaning farzandlariga bo'lgan mehri degan bo'lar edim. Shu o'rinda savol tug'iladi: Agar shoh farzandini o'rniga boshqa bir zadogon yoki oddiy xalq farzandi bo'lganida uning ahvoli ne kechar edi?

Hozirgi o'zbek adabiyotida ham otaning oiladagi o'rnini naqadar yuksak ekanligini ko'rsatib beruvchi badiiy asarlar kam emas. Bular sirasiga Hudoyberdi To'xtaboyevning „Mungli ko'zlar“ romanini keltirishimiz mumkin. Bu romanda halol yo'l bilan topilmagan boylik hech qachon hech kimga buyurmasligi, oxir-oqibatda esa bir oilaning nobud bo'lishini, ya'ni otaning qilmishlari farzandlariga urishini ko'rsatib beradi. Bu asar Zafar ismli bola tilidan so'zlab beriladi. Zafarning otasi poraxo'rliги tufayli qamoqqa olinadi. Onasi ham noqonuniy savdo orqali ozodlikdan maxrum qilinadi. Bu voqealar yosh go'daklar hayotini tubdan o'zgartiradi. Zafar avvaliga maktabda yaxshi o'qiydi, ammo keyinchalik otasining ishidagi ishkalliklar, onasining qamalishiga bir baxya qolishi, akasining nogironligi unga o'z ta'sirini o'tkazadi. Oilaviy muhit uni mana shu ahvolga olib keladi. Biroq uning hayotida juda katta o'zgarishlar yuz beradi. Ota-onasi qamaladi. Bu ham yetmaganidek onasining to'satdan vafot etishi, ukasi Zafarning avtohalokat qurboni bo'lishi, akasining o'zini o'ldirishi, singlisi Nigorani esa pes bosib, badaniga oq toshmalar toshishi bolani bir zumda ulg'aytirib qo'yadi. Kitobxonda bu voqealarning bosh aybdori kim? degan savol tug'iladi. Farzand tarbiyasida ota-ona birdek mas'uliyatli. Ular farzandni shunday tarbiyalashi zarurki, halolni haromdan, pokni nopokdan, haqiqatni yolg'ondan ajrata olsin. Qur'onda ham har bir ota-ona farzandini halol luqma bilan tarbiyalashi zarurligi aytilgan.

Ota timsoli adabiyotda mukammal insoniyatning eng yaxshi yonini namoyish etadi. U "otasi bo'lmagan" yoki "double orphan" sifatida yaratilgan kishini ifodalaydi. Ota timsoli, ko'pgina holatda yorqin yoki zerikarli muammoni hal qilish uchun ko'rsatiladi va adabiyotning eng yuqori qadriyatlarini ifoda etuvchi bir vosita sifatida ishlatiladi. Ushbu konsepsiyalar adabiyotda mukammal insoniyatning kelajagi va ildiz sifatida ko'rsatiladi. Shimoliy Avropada ota timsoli qodirlik, qo'rquv, sabr, va yomoni bildiruvchi harflar bilan ifodalangan edi. Bunday qismat ertaklar adabiyotda oilaviy aloqa muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, milliyligimizning boshqalardan farq qilib turuvchi asosiy tomoni bir-biriga hurmatda bo'lish, bir-birini ardoqlash, mehr-muruvvatni odamlardan ayamaslikdadir. O'zbek xalqi bolajon xalq hisoblanadi. Mana necha asrlar bo'libdiki, o'zbeklar o'zining serfarzandligi bilan alohida ajralib turadi. Goho uyida bola ovozi eshitilmasa „bolali uy bozor, bolasiz uy mozor“ ekanda deb ham qo'yishadi. Farzandlariga o'zbek otalarichalik mehr qo'yuvchi ota boshqa hech qaysi davlatda topilmaydi. „Ota bo'lmay, ota qadrin bilmas“ degan maqolni bejizga aytishmagan. Chunki hech kim o'zi farzandli bo'lmaguncha, ota-onasining qadrini bilmaydi. Ota kaftini to'ldirib turgan narsa ham, farzandlariga duo uchun ochilgan qo'lidir. Otaning duosi esa o'tga suvga botirmas. Ya'niotangga o'la-o'lguncha xizmat qil, bergan tuzi, tarbiyasini oqla, hech qachon

yuz o'girma, rozi qil, rahmatini eshit, olqishini ol, bekordan-bekorga gapini, ra'yini qaytarma, ranjitma degan ma'no bor. Badiiy adabiyotimizda ham ayni shu masalalarga ayricha urg'u beriladi. Bizning mentalitetimizda aytib o'tganimdek, otaning o'rne benihoya yuqori. Ular oilaning gullab yashnashiga yoki tanazzuliga olib boruvchi, jamiyatimizning eng yuqori qatlamidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Adabiyotshunoslik nazariyasi", A.Ulug'ov, G'.G'ulom NMIU, T – 2018
2. "Adabiyotshunoslik nazariyasi", A.Ulug'ov, G'.G'ulom NMIU, T – 2018, 62-63-b
3. "Temur tuzuklari", "shodlik" nashriyoti. Toshkent – 2019-yil, 99-bet)
4. A.Qodiriy "O'tkan kunlar" romani, "Navro'z" Toshkent – 2019-yil, 25-bet.
5. A.Qodiriy "O'tkan kunlar" romani, "Navro'z" Toshkent – 2019-yil, 134-135-betlar)
6. Aslonov, S., & Ruzimurodova, Z. (2020). THE USE OF ACRONYMS AND INITIALISMS IN BUSSINES ENGLISH. Студенческий вестник, (12-5), 34-35.